

O'SPIRINLARDA SUITSIDAL XULQ PREVENSIYASINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Yakubov Karim Maxmudjonovich

Samarqand viloyati Samarqand shahar

33-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi direktor o‘rinbosari

Annotatsiya: *ushbu ilmiy maqolada o'spirinlarda suitsidal xulq prevensiyasining ijtimoiy-psixologik determinantlari, bu davrga xos suitsidal xulq-atvorning asosida ta'lim-tarbiya jarayonidagi noto'g'ri pedagogik-psixologik ta'sir, uning shaxslilik xususiyatlari va emotsional holatlaridagi salbiy o'zgarishlar xususida so'z boradi.*

Ushbu maqolani yozishdan maqsad: O'spirin va uning ijtimoiy atrof- muhitdagi o'zaro munosabatlarining buzilishi ko'pincha suitsidal xulq-atvor namoyon bo'lish sababi ekanligini ko'rsatib berish.

Natija: *O'spirinlarda suitsidal xulq prevensiyasining ijtimoiy-psixologik determinantlari, oldini olish, tahlil va fikr-mulohazalar asosida ko'rsatiladi.*

Kalit so'zlar: *suitsidal xulq prevensiyasi, xulq-atvor, determinant, o'spirinlik davri.*

Barchamizga ayonki, 15 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan davr o‘spirinlik davridir. O‘spirinlar 8-10 sinf o‘quvchilari bo‘lib, ular oldida kelgusida kim bo‘lish, qanday faoliyat turi bilan shug‘ullanish kerak degan tashvish turadi. Bu yoshdagi bolalar o‘smirlardan farq qiladi. Agar o‘smirlikda o‘quvchining asosiy faoliyati o‘qish bo‘lgan bo‘lsa, yuqori sinf o‘quvchilarining faoliyati o‘qish, bilim olish va mehnatga tayyorlanishdan iborat bo‘ladi. O‘spirinlik davrida o‘quv faoliyatining murakkablashishi, ularning yangi jamoada tutgan o‘rni ulardan ko‘p narsa talab qiladi. O‘spirinlarning maktab hayotida, oilada tutgan mavqei o‘zgaradi, ya‘ni o‘zidan kichiklarga nisbatan boshliq, tashkilotchi va tarbiyachi bo‘lish talab qilinadi. Bolalarning bu davriga xos suitsidal xulq-atvorning asosida ta‘lim-tarbiya jarayonidagi noto‘g‘ri pedagogik-psixologik ta‘sir, uning shaxslilik xususiyatlari va emotsional holatlaridagi salbiy o‘zgarishlarga ota-onalar, pedagoglar, o‘spirinning tengdoshlari tomonidan etarli e‘tibor berilmasligi sababli yuzaga kelgan ijtimoiy dezadaptatsiya, ijtimoiy integratsiyaning pasayishi va beqarorligi yotadi. O‘spirin va uning ijtimoiy atrof- muhitdagi o‘zaro munosabatlarining buzilishi, shaxslararo aloqalarning qiyinlashuvi, ota-onalar, ta‘lim muassasalari xodimlari tomonidan sub‘ekt ehtiyojlari, qiziqishlari inobatga olinmagan holda o‘tkazilgan bosim, ularda hayot mazmuni, xavfsizlik va “kerak”lilik hissining yo‘qolishi, ko‘pincha suitsidal xulq-atvor namoyon bo‘lish sabablaridan biridir. Shu o‘rinda savol tug‘iladi. Xo‘sh, suitsid nima? Uning zarari va ogohlik bo‘yicha qanday ishlarni amalga oshirish lozim?

Suitsid – lotinchadan olingan bo‘lib (lot. sui caedere - “o‘zni o‘ldirish”), odamning ongli ravishda o‘zini hayotdan mahrum qilishini anglatadi. Suitsidal xulq-atvor suitsiddan farqli o‘laroq, kengroq tushuncha bo‘lib, o‘zida suitsidal xatti-harakat, o‘z joniga qasd qilishga urinish hodisalarini qamrab oladi (Kondrashenko, 1999 y.). O‘z joniga qasd qilishga barcha suitsidal xatti-harakatlar, ya‘ni o‘z joniga qasd qiluvchiga bog‘liq bo‘lmagan holda o‘lim ro‘y bermaydigan holatlar ham kiradi (mas. arqonning uzilib ketishi, o‘z vaqtida ko‘rsatilgan tibbiy yordam va h.k.). Suitsidal ko‘rinishlar sirasiga unga muvofiq keluvchi fikrlar, so‘zlar va o‘z joniga qasd qilishga qaratilgan xatti-harakatlar

bilan birga kechmaydigan alomatlar ham kiradi. Boshqa tasniflarga ko‘ra, o‘z joniga suiqasdlar haqiqiy suitsid va parasuitsidga (o‘limga olib kelmaydigan o‘ziga-o‘zi ziyon yetkazish harakatlariga (Kondrashenko, 1999 y.) ajratiladi. Suitsidlar shartli ravishda haqiqiy va namoyishkorona-qo‘rqituvchi turlarga bo‘linadi. Haqiqiy suitsidal xulq-atvorda odamning o‘zini o‘ldirish ehtiyoji maqsadga aylanadi. Namoyishkorona qo‘rqituvchi suitsidal xulq-atvor atrofdagilarga ta‘sir o‘tkazish, qandaydir foyda olish, boshqa odamlar hissiyotlarini boshqarish maqsadida qo‘llanadi. Namoyishkorona qo‘rqituvchi xulq-atvor maqsadi o‘zini o‘ldirish emas, balki shunday kayfiyatni ko‘rsatishdir.



Ta‘kidlash joizki, mamlakatimizda ushbu muammoning o‘rganilishi katta ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir. O‘zbekistonda suitsid muammosining ijtimoiy-psixologik jihatlarini ilk bor ilmiy tadqiq etishni boshlagan mutaxassislar guruhi a‘zolari psixologiya fanlari doktorlari, professorlar M.G.Davletshin, G‘B.Shoumarov, psixologiya fanlari nomzodlari, dotsentlar S.A.Axundjanova, N.A.Sog‘inov, Z.R.Qodirova, E.SH.Usmanov, B.M.Umarov, F.S.Ismagilova, Z.F.Kamaletdinova, tibbiyot fanlari nomzodi N.M.Xodjayeva va psixolog N.Z.Ismoilovalardan iborat edi. Ayni vaqtda b mutaxassislarning aksariyati fan doktorlari bo‘lib, nafaqat respublikamiz, balki uning hududlaridan tashqarida ham ilmiy faoliyatlarini davom ettirmoqdalar. Mazkur guruh a‘zolari faoliyati mahsuli o‘laroq, suitsid muammosini ilmiy tadqiq etish asnosida o‘rganilayotgan muammoning nazariy asoslari ishlab chiqildi, turli ilmiy konsepsiyalar yaratildi. Suitsidning yuzaga kelishiga asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan omillar, suitsid sabablari, ularning turlari, vositalari, ko‘rinishlari aniqlandi, suitsidni tadqiq etish metodikalari yaratildi, ularning oldini olish va bartaraf etishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu borada alohida e‘tirofqa molik tadbirlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, mazkur muammo batamom hal etilgani yo‘q. Hamon dunyo miqyosida, o‘z joniga qasd qilib, hayotdan ko‘z yumganlar miqdori avtomobil halokati tufayli hayotdan ko‘z yumganlardan ko‘pligicha qolmoqda. Albatta, bu ko‘rsatkich respublikamizda g‘arb, Yevropa davlatlaridagiga qaraganda sezilarli darajada kam bo‘lsa-da, lekin aholimizning etnik, hududiy xususiyatlariga bog‘liq holda bu hodisaning salbiy asoratlari og‘irroq kechadi.



Bunda suitsident o‘zida shaxsning favqulotda vaziyatlardagi xulq – atvorining variantlaridan birini namoyon etadi, shu bilan birga vaziyatning suiqasdgga mosligi bilan emas, balki subʼjektning o‘ziga xosliklari, uning hayotiy tajribasi, intellekti, ichki shaxsiy aloqalarning mustahkamligi bilan aniqlanadi. Adabiyotlarda ko‘pincha suitsidal xatti-harakatlar bilan solishtiriladigan, «autatratvmatizm» (o‘ziga jarohat yetkazish), «autoagressiv xatti – harakat» terminlari ham uchraydi. Agar autoagressiv harakatning oxirgi maqsadi o‘z joniga qasd qilish bo‘lsa, uni suitsidal xatti – harakatlarga bog‘lash mumkin. Zamonaviy, ayniqsa xorijiy adabiyotlarda «autodestruktiv» (o‘ziga zarar yetkazish bilan bog‘liq xulq – atvor) «o‘zini – o‘zi yo‘q qilish» xulq – atvori tushunchasi keng tarqalgan. Psixologik – ruhiy – og‘riq, og‘ir inqirozli holatning umumiy belgisi hisoblanadi. Ko‘ngil og‘rig‘iga chiday olmaslik, uni har qanday yo‘l bilan to‘xtatishga olib keladi, inqirozli vaziyatdagi odamga esa suitsidal o‘rinish o‘z muammolaridan qutilish va uni hal etish usulidek qabul qilinadi.

Taniqli olimlardan bir suitsidlarning shart-sharoitlari va ularni amalga oshirishning turlichaligiga qaramay, barcha suitsidlarga xos bo‘lgan mavjud belgilarni tavsifladi va ajratdi:

1. Suitsidning umumiy maqsadi – yechimni qidirish.
2. Suitsidning umumiy maqsadi – ongni to‘xtatish.
3. Suitsidning umumiy turtkisi – chidab bo‘lmaydigan ruhiy og‘riq.
4. Suitsidda umumiy stressor – psixologik ehtiyojlarning frustratsiyaga uchrashi.
5. Umumiy suitsidal hissiyotlar – ojizlik va umidsizlik.
6. Suitsidga umumiy ichki munosabat – ambivalentlik.
7. Suitsidda psixikaning umumiy holati – kognitiv sohaning torayishi.
8. Suitsiddagi umumiy harakat – muammodan qochish.
9. Suitsidda umumiy kommunikativ harakat – o‘z niyati haqida xabar berish.
10. Umumiy qonuniyat – hayot davomidagi xulq-atvorning suitsidal xulq-atvor umumiy uslubiga (belgilariga) muvofiq kelishi.

Xullas, bugun har bir pedagog, nafaqat, pedagoglar, balki, ota-onalar ham mas‘uliyatli bo‘lgan holda o‘spirinlarda suitsidal xulq prevensiyasining ijtimoiy-psixologik determinantlari to‘g‘ri anglagan holda ularni bunday oqibatlardan asrashi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-fevraldagi “2019-2025- yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PK-4190-son qarori.

2.U.Qodirov. Yoshlarni destruktiv ta’sirlardan himoyalashning psixologik jihatleri. Toshkent, “Fan va texnologiyalar”, 2013-yil.

3.Internet manzillari va metodik qo‘llanmalar.